



ZAMONAVIY TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA ELEKTRON TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Pulatova E'tibor Obidovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot texnologiyalari rivojlanishining mahsuli bo'lgan internetning paydo bo'lishi turli ta'lim platformalaridan olinadigan katta hajmdagi ma'lumotlar bazasiga yo'l ochib bergani va elektron ta'lim platformalarining bugungi kundagi o'rni, ta'lim rivojiga qo'shayotgan hissassi, imkoniyatlari haqida batafsil tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: elektron ta'lim, platformalar, onlayn ta'lim, axborot texnologiyalari, elektron manbalar, kurslar, seminarlar, video darslar.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgarishlar va yangi texnologiyalarning ta'sirida rivojlanmoqda. Bu jarayonda elektron ta'lim platformalari va onlayn ta'limning roli tobora ortib bormoqda. Yangi avlod ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarga yanada samarali, qulay va individual yondashuvda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Elektron ta'lim platformalari o'zining interaktivligi, global kirish imkoniyatlari va ta'lim resurslariga osongina erishish imkoniyati bilan ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda pandemiya sharoitida bu platformalar ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishining mahsuli bo'lgan internetning paydo bo'lishi turli ta'lim platformalaridan olinadigan katta hajmdagi ma'lumotlar bazasiga yo'l ochib berdi. Butun dunyo bo'ylab tez suratlarda tarqaldan COVID 19 pandemiya davrida ularning ahamiyati o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Pandemiya boshlanmasdan oldin ham ta'lim tizimida raqamli ta'lim platformalariga talab yuqori bo'lib, ular foydalanuvchilarga ta'limning turli shakllari doirasida mavjud muammolariga yechim topilishiga yo'l ochib berdi. O'quv jarayonida



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish didaktik ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi – o'quvchilarning mustaqil ishlari ulushini oshiradi, bu esa ularda mas'uliyat, tashkilotchilik, mustaqillik, o'z fikrini anglay bilish kabi fazilatlarni shakllantirishni ta'minlaydi. Kuchli tomonlari va qobiliyatlarini bilish esa, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020- yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoniga asosan “Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasi, shuningdek, strategiyani 2020-2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlangan edi¹

Strategiya ikki dasturni: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan. “Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim shartlari sohaning moliyaviy ta'minoti va aholining raqamli savodxonligini oshirishdan iborat, deb belgilangan. Ushbu hujjatga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi boshqa tegishli davlat organlari bilan birgalikda 2022-yil oxiriga qadar maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash va umumta'lim maktablarini raqamlashtirishni yakunlash choralari ko'rishni nazarda tutilgan edi. Mazkur yo'nalishlarda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2024-yilning yanvar oyi holatiga ko'ra, davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo'lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 575 ga yetdi ². Albatta bu natijalar har bir shu yurt fuqorosini xursand qiladi. Davlatimizning ta'limga berayotgan e'tibori ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan hissasi tahsinga

¹ “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.

² Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi. 2024-yilning ilk kunlarida biz sizlarga mamnuniyat bilan my.gov.uz orqali (YIDXP) ko'rsatilayotgan xizmatlar soni 570 tadan oshganini ma'lum qilamiz. 04.01.2024.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

sazovordir. Ta'limni rivojlantirmasdan turib davlatni rivojlantirish imkonsizdir, ta'limi rivojlangan yurtda yurt uchun jonkuyar avlod ulg'ayadi.

Davlatlarning ta'lim tizimlari ta'lim muammolarini hal qilish, ta'lim sifati va mazmunini sezilarli darajada yaxshilash uchun elektron ta'lim platformalariga murojaat qilmoqda. Keng qamrovli elektron ta'lim platformasini joriy etish o'quv dasturi, darsliklar infratuzilmasi, o'qituvchilar malakasini oshirish va baholash jarayonlariga o'zgartirishlar kiritishni anglatadi. Elektron ta'limni ta'lim tizimiga integratsiyalash konsepsiyasi o'qituvchi va o'qitish usullaridan boshlanadi. "Elektron ta'lim platformalaridan foydalanish usullari butun ta'lim yondashuvini, shu jumladan elektron ta'lim vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Samarali ta'lim platformalari bilan birgalikda elektron ta'lim o'qituvchilarga audio-vizual o'rganish, boshqotirmalar va viktorinalar orqali o'z-o'zini sinab ko'rish va ish joyida simulyatsiyalar orqali kinetik o'rganish kabi keng qamrovli ta'lim uslublaridan foydalanish imkonini beradi"³.

Elektron ta'lim platformalari o'zining qulayligi, samaradorligi va global miqyosdagi imkoniyatlari bilan barcha ta'lim usullarini to'ldiradi va yangilaydi. Elektron ta'lim platformalari afzalliklarini quydagilarda ko'rib chiqishimiz mumkin

- elektron ta'lim platformalari ta'lim jarayonini geografik cheklovlar va vaqt hududlaridan mustaqil qiladi. O'quvchilar va talabalar har qayerdan va har qanday vaqtda darslarni o'rganishlari mumkin. Bu ta'limni kengroq auditoriyaga taqdim etishga, hatto chekka hududlarda yashovchi insonlarga ham o'qish imkoniyatini beradi.

- elektron ta'lim platformalarida o'quvchilar uchun turli xil interaktiv materiallar, videolar, testlar, forumlar va boshqalar taqdim etiladi. Bu o'quvchilarga o'zlarining qiziqishlari va bilim darajalariga mos ravishda ta'lim olish imkonini beradi. Har bir talabaga alohida yondashish, uning o'ziga xos o'qish uslubiga mos materiallarni taqdim etish elektron ta'limning afzalliklaridan biridir.

- onlayn ta'lim platformalari keng qamrovli resurslar bazasiga ega. Talabalar kutubxonalarga, video darslarga, ilmiy maqolalarga va boshqa ta'lim materiallariga

³ Amshi MD Impact of E - Talabalarining o'qishi va faoliyatiga ta'siri. 2020. www.academia.edu.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

oson kirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ta'limning sifatini oshiradi va talabalar uchun yanada samarali o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

-elektron ta'lim platformalarida talabalar va o'qituvchilar o'rtasida kollaboratsiya osonlashadi. Forumlar, guruhlar, chatlar orqali talabalar o'z bilimlarini baham ko'rishlari, muhokama qilishlari, bir-birlariga yordam berishlari mumkin. Bu esa o'qish jarayonini yanada interaktiv qiladi va ta'limning o'quvchi markazli bo'lishiga hissa qo'shadi.

-onlayn ta'lim jarayonida o'qish bilan birga, talabalar raqamli texnologiyalarni, kompyuter ilovalari va platformalarini ishlatishni o'rganadilar. Bu esa ularni zamonaviy ish bozori uchun tayyorlaydi, chunki bugungi kunda raqamli ko'nikmalar har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur.

-elektron ta'lim platformalari o'qituvchilarga o'quvchilarning progressini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Bu, o'qituvchiga talabalar qanday mavzularda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlash va kerakli o'zgartirishlarni kiritish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'quvchilar darsni o'zlarining o'rganish tezligiga qarab takrorlash yoki yangi materiallarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega.

Elektron ta'lim platformalarining samaradorligini oshirish va ularni yanada ommalashtirish uchun bir qator strategik yondashuvlarni amalga oshirish zarur. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, interfaol ta'lim metodlarini qo'llash va milliy ehtiyojlarga moslashtirilgan platformalar yaratish bu yo'nalishda muhim omillar hisoblanadi. Interfaol ta'lim va gamifikatsiya talabalarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, gamifikatsiya elementlarini qo'llash orqali talabalar ishtirok darajasi 30% ga, materialni eslab qolish ko'rsatkichi esa 25% gacha oshadi. Ball to'plash, mukofotlar olish kabi mexanizmlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin. Bunday yondashuv o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Milliy ta'lim tizimi uchun maxsus platformalar yaratish ham dolzarb masala hisoblanadi. Hozirda O'zbekistonda faqat 15-20% elektron ta'lim resurslari o'zbek tilida yaratilgan. Mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan ta'lim materiallarini ishlab chiqish orqali bu ko'rsatkichni 50% dan oshirish mumkin. Bu esa platformalarni milliy ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilishni ta'minlaydi. Shuningdek, xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash ham asosiy vazifalardan biridir. Elektron ta'lim platformalarida shaxsiy



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

ma'lumotlarni himoya qilish, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy qilish orqali foydalanuvchilar ishonchini 70-80%ga oshirish mumkin. Elektron ta'lim platformalarining ta'sirini oshirish zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, interfaol va milliy ehtiyojlarga moslashtirilgan ta'limni rivojlantirish va xavfsizlikni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotlar va amaliyot natijalari ko'rsatmoqda-ki, ushbu yondashuvlar ta'lim sifatini 30-40% gacha yaxshilash imkonini beradi. Elektron ta'lim platformalari orqali mustaqil ta'lim olish nafaqat talabalar uchun, balki butun ta'lim tizimi uchun katta imkoniyatlarni ochadi. O'zbekistonning elektron ta'lim sohasidagi o'sishi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam bermoqda. Bu platformalar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi, vaqtini tejashga erishadi va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Elektron ta'lim tizimining foydaliligi o'zini o'quvchilarning, ta'lim muassasalarining va butun mamlakatning ta'lim tizimining samaradorligida namoyon qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Amshi MD Impact of E - Talabalarning o'qishi va faoliyatiga ta'siri. 2020. www.academia.edu
2. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari tog'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.
3. Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi bayonati. 04.01.2024.
4. O'zbekiston Ta'limi Innovatsiyalar Instituti. (2023). "Elektron ta'lim va raqamli texnologiyalar: O'zbekistonning ta'lim tizimidagi roli". Toshkent, O'zbekiston.